



UO‘K: 82.82-1.29

“QUTADG‘U BILIG” ISTIORALARINING POETIK O‘ZIGA XOSLIKLARI XUSUSIDA CHUQUR MULOHAZA**A DEEP REFLECTION ON THE POETIC FEATURES OF THE METAPHORS OF “KUTADGU BILIG”****ГЛУБОКОЕ РАЗМЫШЛЕНИЕ О ПОЭТИЧЕСКИХ ХАРАКТЕРИСТИКАХ МЕТАФОР «КУТАДГУ БИЛИГ»****Ibragimov Jasurbek Tulkinjon o‘g‘li** 

IMPULS Tibbiyot instituti, Xorijiy tillar kafedrası katta o‘qituvchisi, PhD

Annotasiya

Ushbu ilmiy maqola ilk turkiy yozma adabiyot na‘munasi hisoblangan “Qutadg‘u bilig” asarining “badiiy san‘atlar gultoji” hisoblanadigan istioraning ifodalanishi va ular mutarjimlar tomonidan qanday amalga oshirilganligini baholash yuzasidan amalga oshirilgan. Asosiy maqsad tarjimonlar Volter Mey hamda Robert Denkof tomonidan amalga oshirilgan inglizcha tarjimalar orqali Yusuf Xos Hojibning o‘ziga xos poetik mahoratini qanday baholanganligi aniqlash. Ushbu maqsadga erishish uchun “Qutadg‘u bilig” asliyatida aniqlangan metaforalar avvalo o‘zbekcha tadbildagi ifodasi bilan o‘zaro qiyosan tahlilga tortildi va inglizcha tarjimalar bilan ham o‘rganib chiqildi. Avvalo, tarjimashunoslik sharqda yartilgan manbaning boshqa g‘arb tiliga qilingan o‘girmasi bilan solishtirish o‘zining murakkablik doirasidan o‘zining bor bo‘y bastini doimo ko‘rsata olgan. Qolaversa, bu murakkablik metaforaning tarjimadagi ifodasi yuzasidan ketganda esa tadqiqot ishining dolzarbligi hamda zaruratini yanada ochiq namoyon qiladi. Ana shunday murakkabliklarni tarjimonlar tomonidan hal qilingan yoki yo‘qligini aniqlash maqolada belgilab olingan dolzarb masalalardan biri. Tadqiqot natijasida tarjimonlar metafora ifodasida so‘zma-so‘z tarjima, ma‘no oddiy ifoda qilish va bazi o‘rinlarda metafora turshurib qoldirganligi ayon bo‘ldi. Ayniqsa, bu holat V.Meyning she‘riy tarjimasida ko‘p kuzatiladi. O‘zbekcha she‘riy usuldagi tabdil va R.Denkofning ingliz tilidagi nasriy tarjimalarda esa, metafora ifodasi muvaffaqiyatli amalga oshirilganligi aniqlandi.

Аннотация

В данной научной статье рассматривается выражение метафоры «колыбель искусств» в произведении «Кутадгу билиг», которое считается образцом ранней тюркской письменной литературы, и то, как она была реализована переводчиками. Основная цель – определить, как уникальные поэтические способности Юсуфа Хос Хаджиба были оценены с помощью английских переводов, выполненных переводчиками Уолтером Мэем и Робертом Денкоффом. Для достижения этой цели метафоры, выявленные в оригинале «Кутадгу билиг», были сначала проанализированы в сравнении с их узбекским переводом, а также изучены с английскими переводами. Прежде всего, переводоведение всегда полностью раскрывало свой потенциал в контексте сложности сопоставления источника, созданного на Востоке, с переводом на другой западный язык. Более того, эта сложность, когда речь идет о выражении метафоры в переводе, еще раз демонстрирует актуальность и необходимость исследовательской работы. Определение того, были ли подобные сложности решены переводчиками, является одним из актуальных вопросов, обозначенных в статье. Исследование показало, что переводчики использовали дословный перевод, упрощали смысл, а в некоторых местах оставляли метафору нетронутой. Такая ситуация особенно характерна для поэтического перевода В. Мая. Установлено, что метафорическое выражение успешно реализовано в узбекских поэтических переводах и английских прозаических переводах Р. Денкова.

Abstract

This scientific article is about the expression of metaphors, which are considered to be the “flowerbed of the arts” in the work “Kutadgu Bilig”, which is considered to be an example of early Turkic written literature, and how they were implemented by translators. The main goal is to determine how Yusuf Hos Hajib’s unique poetic skill was evaluated through the English translations made by translators Walter May and Robert Denkoff. To achieve this goal, the metaphors identified in the original “Kutadgu Bilig” were first analyzed in comparison with their expression in the Uzbek translation and were also studied with English translations. First of all, translation studies have always shown their full potential in terms of their complexity when comparing a source created in the East with a translation into another Western language. Moreover, this complexity, when it comes to the expression of metaphors in translation, reveals the relevance and necessity of the research work even more clearly. Determining whether such complexities have been resolved by translators is one of the pressing issues identified in the article. As a result of the study, it became clear that translators used literal translation, simple expression of meaning, and in some places left the metaphor intact in

metaphorical expressions. This is especially common in V. May's poetic translation. It was found that metaphorical expressions were successfully implemented in Uzbek poetic translations and R. Denkoff's prose translations into English.

Kalit so'zlar: *istiora, tashbeh, realiya, badiiy san'at, poetika, tarjima, asliyat*

Ключевые слова: *метафора, сравнение, реалии, искусство, поэтика, перевод, оригинальное произведение*

Key words: *metaphor, comparison, lacuna, art, poetics, translation, original work.*

KIRISH

Poetika masalasi Arastuning shu nomdagi asari yaratilgandan beri ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'rganish tarmog'i bo'lib kelmoqda. Biz ushbu tadqiqot ishimizda qadimgi turki yozma asar "Qutadg'u bilig"da mavjud metaforalarni tanlab olib, ularni ingliz tiliga qilingan tarjimalari bilan qiyosan solishtirib tadqiq qilish asosiy maqsadimiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Yusuf Xos Hojib qadimgi turkiy yozma adabiyotning otaxon adibi sifatida yuksak e'tiborga sazovor bo'lgan. Buni adibning hayoti va ijodini jiddiy tarzda tadqiq etgan yirik sharqshunos va turkiyshunos olimlar atroflicha ko'rsatub berishgan. Ayniqsa, R.R.Arat, V.V.Radlov, A.Smaylovich, E.E.Bertels, A.Dilachar, I.V.Stebleva, Q.Karimov, B.To'xliyev kabi olimlarning bu boradagi ilmiy kuzatishlari diqqatga sazovordir.

Yusuf Xos Hojib o'z poetik mahoratini so'z tanlashdan boshlab uning vazni va qofiya tizimida, asar syujeti va kompozitsiyasida, qahramonlar tasviri va talqinida ham ayro ko'rsata olgan. Bu mulohazalar asarning tasvir vositalariga ham to'laqoligicha taalluqlidir.

"Qutadg'u bilig" qadimiy turkiy yozma manba sifatida dunyo olimlarining diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Shu boisdan, olimlar uning turli xil yo'nalishlarda tadqiq qilishmoqda. Hozirgi kunda, metafora asosida yaratilgan baytlarni aniqlab, ularni tarjimalarda ifodasini aniqlash muhim bir masala. Bu yo'nalishda dotsent Q. Sidiqov [9, 17] va professor Z. Sodiqovlar [6, 45] asarning turk, ingliz va nemis tillarga qilingan tarjimalar asosida qisman o'z ilmiy ishlarida to'xtalganlar. Maqolada asliyatda metafora aniqlangan baytlar ingliz tilidagi ikki tarjimasi bilan solishtirib, ularni ilmiy tahlilga tortiladi. Bundan tashqari, tarjimada metafora qanday ifoda etilganligi ilmiy asoslab beriladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Yusuf Xos Hojibning yuksak poetik mahorati asarda badiiy tasvir vositalarni XI asr dunyosini tasvirlashda juda qo'l kelgan. Biz mulohazalarimizni istioralar tarjimasi misolida ko'rsatishga harakat qilamiz. Xususan, tadqiqotchi Qosimjon Sidiqov o'zining "Qutadg'u bilig" to'rtliklarining inglizcha badiiy tarjima xususiyatlari" nomli monografiyasida alohida ta'kidlab, "Yusuf Xos Hojib zabardast so'z san'atkori sifatida she'riy san'atlardan mahorat bilan foydalangan" [9, 17] deya ta'rif berib o'tadi.

Muallif ushbu she'riy san'atlar ichida Sharqda "istiora", G'arbda "metafora" nomi bilan yuritiladigan san'atga alohida e'tibor qaratgan. U asar muqaddimasida payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) bilan bog'liq baytlarni badiiy ko'chim orqali ifodalashdan boshlab, turli xil insonlarning xulq-atvorini hayvonlar karakteriga majoziy o'xshatishlargacha berib o'tgan.

O'zbek tarjima maktabining xassos vakillaridan biri G'aybulla Salomov "shoirning ifodalari, istioralari qanchalik purma'no, ta'sirchan bo'lsa, she'r shuncha shirin va dilrabo bo'ladi" [1, 99] deya tavsif bergan. Shuning uchun ham nazmda she'riy san'atlardan keng foydalaniladi.

Tadqiqot obekti sifatida "Qutadg'u bilig"ning asl matni, Qayum Karimov tomonidan amalga oshirilgan o'zbekcha tadbil, Volter Meyning ingliz tilidagi nazmiy va Robert Denkof tomonidan amalga oshirilgan nasriy tarjimalar tanlab olindi. Shu o'rinda "Qutadg'u bilig" va uning tarjimalari bo'yicha qilingan tadqiqotlarga bir nazar tashlash o'rinli ko'rinadi.

Qirg'izistonning Qirg'iz-turk Manas universiteti professori Aida Kasiyeva "Qutadg'u bilig" va uning tarjimalaridagi badiiy tasvir vositalariga oid ilmiy tadqiqot ishini bajargan [18]. Uning tadqiqot ishi birgina metafora emas, balki tashbeh, metonimiya, jonlantirish va epitet san'atlarini o'z ichiga olganligi va ingliz tilidagi tarjimalardan faqatgina Volter Mey tomonidan amalga oshirilgan tarjimani qiyoslaganligi bois, hali hanuz "Qutadg'u bilig" ning asliyat matnini boshqa ingliz tilidagi tarjimalar bilan amalga oshirish dolzarbligicha qolmoqda. Shu o'rinda, Kasieva qiyosiy tadqiqotni asliyat bilan

ADABIYOTSHUNOSLIK

emas, balki zamonaviy turk tiliga Arat tomonidan qilingan tarjima bilan amalga oshirganligini eslatib o'tish joiz ko'rinadi.

Professor, Zohidjon Sodiqov "Qutadg'u bilig" nemis va ingliz tilidagi tarjimalariga oid ilmiy-adabiy va qiyosiy-tipologik talqini bo'yicha nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilgan. Uning "Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" asarini olmoncha ilmiy adabiy talqinlari" mavzusida qilgan nomzodlik ishining uchinchi faslida badiiy san'atlar: istiora, nido va irsol ul-masal san'atlarini asliyat va nemis tiliga qilingan tarjimasi bo'yicha amalga oshirgan [6, 45-94]. Ushbu tadqiqot ishi asliyat matni, o'zbekcha tadbili, nemis tiliga qilingan ikki tarjimani ilmiy-adabiy talqin doirasida amalga oshirgani "Qutadg'u bilig" asarini tarjimashunoslik yo'nalishi bo'yicha qilingan yaxshi ish bo'lgan. Tadqiqotchining shu mavzudagi nomli monografiyasida ham asarni boshqa tillar (o'zbek, rus, turk, nemis va ingliz) dagi tarjimalarini qiyosiy tahliliga to'xtab o'tgan. Ushbu monografiyaning bir qismi "o'xshatish" san'ati va uning tarjimalardagi ifodasi xususida bo'lganligi ushbu asar bo'yicha qilinishi kutilayotgan ishlar uchun dasturulamal bo'la oladi. Zohidjon Sodiqov tadqiqot ishiga Herman Vamberi va Dr. V. Radloflarning nemis tilidagi va Robert Denkofning inglizcha nasriy tarjimalarini jalb etgan.

Yuqorida tilga olingan tadqiqotchilarning ishlarida umumiy tarzdagina ko'rib chiqilib, "Qutadg'u bilig" istioralarining ingliz tiliga tarjimalari va tadqiqot doirasida avvalo Sharq va G'arb poetikasida istiora va uning turlarini tahlil qilib, ularning poetik xususiyatiga to'xtalib o'tish hisobga olinsa, tadqiqot doirasi anchayin keng ko'lamli. Ta'kidlash joizki, Sharqdagi "istiora" atamasi ostidagi poetik hodisa G'arbda "metafora" nomi bilan yuritiladi. Shunga qaramay, ularning terminologik izohlaridagi ma'no qamrovlarida ayirmalar kuzatiladi. Sharq olimlari bu atama ostida alohida bir poetik hodisani ko'zda tutishadi. G'arbda esa bu tushuncha sharqdagi boshqa ayrim poetik hodisalarni ham o'z qamrovi ichida tutadi.

Quyida e'tiborni ana shunday istioraviy birikma qatnashgan baytni tarjimalar bilan birga qilingan tahliliga qaratamiz:

*Муҳаммад йалавач халайиқ башы,
Қамуғ барчаларга ул-ул көз қашы. (8)
Muhammad payombar-xaloyiq boshi,
Hamma (va) barchaga u ko'z-qoshdir.*

Ma'lumki, Islom diniga e'tiqod qiluvchilar oxirgi payg'ambar Muhammad (s.a.v) ga nisbatan har doim g'oyibona muhabbat his qiladilar. Yusuf Xos Hojib ham ushbu muhabbatni o'z asari debochasida baytlarni istioraviy jumla bilan ifodalashni maqsad qilib, yuqoridagi misralarni bitgan. Birinchi misrada payg'ambarni "халайиқ башы" deya ataydi. Qayum Karimov tomonidan amalga oshirilgan o'zbekcha tadbilda ushbu juma "xaloyiq boshi" tarzida beriladi. O'zbek tilining izohli lug'atida "xaloyiq" – [arabcha – Olloh yaratgan maxluqlar, odamlar] Odamlar, xalq" [2, 346] tarzida keltirib o'tilgan. Asosiy badiiy ko'chim hosil qilgan "bosh" so'zi bo'lib, izohli lug'atda uning majoziy ma'nosi quyidagicha: "bosh" – boshliq, rahbar" [2, 185] tarzida berilgan. Demak, asliyatda muallif payg'ambarga ta'rifni xalqning boshlig'i, rahbari tarzida berib, musulmonlarni ortidan ergashtiruvchi ekanligini yana bir bor eslatib o'tmoqda. "Bosh" leksemasi asl ma'noda "insonning ta'na a'zosi"ga nisbatan ishlatilib, ushbu ma'no tahlilga tortilgan baytning umumiy g'oyasiga mos kelmaganini hisobga olinsa, muallif bu so'zdan badiiy ko'chim hosil qilish uchun foydalangani ayonlashadi.

Ushbu bayt V. Mey tomonidan quyidagicha amalga oshirilgan.

V. Mey tarjimasi

*Mohamet was raised by the Lord very high,
For he was the apple of God's holy eye. (8) [4]*

Mazmuni

*Muhammad Lord tomonidan juda yuqoriga ko'tarildi,
Zero, u Xudo muqaddas ko'zining qorachig'idir.*

Asliyatda Islom e'tiqodi bilan bog'liq tushunchalarni Volter Mey Xristian e'tiqodli kishilar tasavvuri bilan tarjima qilyapti. Shuning uchun, Muhammad Payg'ambarning haloyiqqa boshchilik qilishi asosan adekvat tarzda o'girilgan bo'lishiga qaramasdan, keyingi misradagi Muhammad Payg'ambarning hamma uchun yaqin va aziz ekanligi inglizcha "he was the apple of God's holy eye - Xudo ko'zining olmasi, ya'ni ko'z qorachig'i" tarzida berilgan. Bir qarashda mantiq mutlaqo unutilganga o'xshab tasavvur hosil qilishga qaramasdan bu erda ko'zning olmaga o'xshatilishida

“ko‘z qorachig‘i” nazarda tutilganini ilg‘ash mumkin. Demak, tarjimon Islomiy tushunchaning ekuvalenti sifatida Xristian tasavvuridagi tushunchani topgan. Aytish lozimki Islomiy etiqod nuqtayi nazaridan tushunilishi murakkabroq bo‘lgan hozirgi realiya Xristian dunyoqarashidagi inson uchun deyarli tushunarli shaklga ega bo‘lgan. V. Mey tarjimasidagi “the Lord” so‘ziga alohida e‘tibor talab qilinadi. Chunki, bu so‘z ingliz madaniyatida turli xil ma‘nolarda qo‘llanadi. Ingliz tilida izohli lug‘atlarda ushbu so‘z asl ma‘noda “ma‘lum bir yo‘nalishda buyuk qudratga ega bo‘lgan erkak kishi” yoki “yuqori martabali kishi ismi oldidan qo‘yiladigan so‘z” tarzida berilganligini hisobga olganda, tarjimada metafora noto‘g‘ri ifodalagandek ma‘no kasb etadi. Lekin, nufuzli lug‘atlarda bu so‘zni Xristian dinida “God – Xudo” yoki “Jesus Christ – Iso Masih” [18] tarzida berilganligini ham ko‘rish mumkin. Garchi, asliyatda keltirilgan birinchi misradagi istoira tarjima saqlanmagan bo‘lsada, ikkinchi misrada mutarjim o‘z maqsadiga erishgandek. Biz yuqorida ushbu muvaffaqiyatga atroflicha to‘xtalgan edik.

G‘aybulla Salomov “Tarjima san‘ati – qayta tiklash san‘ati, asarni boshqa tilda qayta yaratish san‘atidir va qayta yaratilgan narsa asliga aynan o‘xshamaydi. Agar aynan o‘xshasa, u qayta yaratilgan bo‘lmasdan, balki ko‘chirma bo‘ladi,” [1, 84] - deya ta‘kidlaganda haq edi. U ko‘chirma haqidagi fikrini “san‘at emas, balki takror” deya ta‘kidlaydi. Shuning uchun, asliyatni tarjimalar bilan qiyosiy tahlil qilinganda muvofiqlik yuqori darajada bo‘lishi kutilmaydi.

Ming afsuski, ushbu baytning Robert Denkof tomonidan amalga oshirgan tarjimada qiyosiy tahlil qilishga bizda mavjud variantning ma‘lum bir qismlari yo‘qligi uchun imkonsiz. Bu holat bazi o‘rinlarda V. Mey tarjimasida ham kuzatiladi. Boshqa bir baytni ko‘raylik.

Йула эрди халққа қаранқу түни,

Йаруқлуқы йадты, йарутты сэни. (34)

Qorong‘u tunlari (u) xalqqa mash‘al edi,

U yorug‘ligini tarqatib seni ro‘shnolikka chiqardi.

Ushbu misrada payg‘ambarga qilingan o‘xshatish go‘yoki butun xalqni yo‘lini yoritib turuvchi jihozga qiyoslanadi. Baytdagi birinchi misrada “йула” so‘zi Qadimgi turkiy so‘zlar lug‘ati birinchi ma‘nosida “факел, светильник” [3, 304] (mash‘al, yoritgich) tarzida berilib, misol tarzida tanlangan jumla “Qutadg‘u bilig”ning hozirda biz tahlil qiloyotgan jumla keltirib o‘tilgan. Demak, Q. Karimov tadbilda aniqlikka erishish bilan birga asliyatda ifodalangan metaforani bera olgan. Ikkinchi misrada payg‘ambar “йула” sifatida “йаруқлуқы йадты, йарутты сэни” tarzida ifodalab o‘tgan. Lekin, Q. Karimov tadbiliga e‘tibor qaratsak, “u yorug‘likni tarqatib seni ro‘shnolikka chiqardi” tarzida ifodalanishida harfxo‘rlikka murojaat qilgandek. Chunki, tadbilda “ro‘shnolikka chiqardi” jumlasini asliyatda aniqlash mushkul. Asliy matndagi ikkinchi misra bizning qarashimizcha “u yorug‘lik tarqatdi, yoritdi seni” tarzida berilganligini nafaqat biz, balki biz qadimiy turkiy so‘zlar tarjimasini tekshirish uchun foydalanilayotgan “Древнетюркский словарь” mualliflari ham shunday fikrda ekan. Chunki, “йаруқлуқ” [3, 278] so‘zini tekshirganimizda, biz tahlilga tortayotgan misra misol sifatida berilib, uning ruscha tarjimasini (Он рассеял свет, озарил тебя.) ham biz amalga oshirgan tadbilni takrorlashiga hech ham shubha yo‘q. Endi, Q. Karimov nega “йарутты сэни” jumlasini “seni ro‘shnolikka chiqardi” tarzida tadbilda ifoda etganiga javob topishimiz lozim. O‘zbek tilining izohli lug‘atida “ro‘shnolikka chiqmoq yoki ro‘shnolik ko‘rmoq” so‘ziga “yuzaga chiqib, baxtli, farovon hayotga erishmoq, yorug‘likka chiqmoq, erkin bo‘lmoq” [2, 186] tarzida izoh berilgan. Demak, Q. Karimov tadbilda hech qanday xatoga yo‘l qo‘ymagan. U “ro‘shnolikka chiqardi” deganda, “yorug‘likka chiqardi” deya ma‘no anglatganligiga izohli lug‘atdan olingan iqtibos to‘la javob bo‘la oladi.

V. Mey tarjimasini:

The dark night was filled with the bright light of day,

And he was lit up by the sun’s gleaming ray (35)

Mazmuni:

Qorong‘u tun kunning yorqin yorug‘ligi bilan to‘ldirildi,

Va u quyoshning charaqlagan nuri tomonidan yoritildi.

Ko‘rish mumkinki, tarjimon asliyatda ifodalangan metaforani berish u yoqda tursin, baytning umumiy ma‘nosini berishdan ham ancha yiroqda. Mutarjim gap qurilishida majhul nisbatdan (ing “passive voice”) foydalanganligi, ya‘ni grammatik transformatsiya mikrokontekst ma‘nodan yiroqlashganligining eng asosiy sababi. Chunki, majhul nisbatda ish-harakatni bajaruvchi shaxs

ADABIYOTSHUNOSLIK

ega hisoblanmaydi. Quyidagi misollarga e'tibor qaratilsa, bu narsa yaqqol namoyon bo'ladi: 1) *Xona tozalandi*. 2) *Kutubxona turli xil mumtoz, ilmiy va badiiy adabiyotlar bilan to'ldirilgan*. Ushbu ikki misoldagi ega "xona" va "kutubxona" so'zlari gapdagi ish-harakatni bajaruvchi emas, balki ularga bajarilgan holatlar yuklatilganligini ko'rishimiz mumkin. Bunday gap strukturasi "ish-harakat bajaruvchi" ko'p hollarda berilmagan yoki "by" (orqali, tomonidan) so'zi vositasida beriladi. Yuqoridagi bayting birinchi misrasida kesim tuzulishi orqali majhul nisbatligini bilishni imkoni bo'lsa, ikkinchisida "by" so'zini ko'rishimiz mumkin. Demak, V. Mey tomonidan ifodalangan birinchi misra "The dark night was filled with the bright light of day, - Qorong'u tun kunning yorqin yorug'ligi bilan to'ldirildi," asliyatdagi "Йула эрди халққа қаранқу түни" jumlasini aynan tarjimasi emasligi ayon. Bu holatda asliyatdagi misra tarjimasi hech qanday majhul nisbatni ishlatishni taqazo qilmagan. Bizningcha, ushbu misra "He was a torch for the public in the night of darkness" deya berilgani ma'qul versiya bo'lgan edi. Chunki, mutarjim tomonidan qilingan tarjimada asliyatdagi baytga asosiy istioraviy ma'no yuklagan "йула" so'zi tarjimada tushib qolib, inglizabon o'quvchiga mavhum bir tarjima taqdim qilingan. Taniqli olimlar G'aybulla Salomov va Najmiddin Komilovlar "she'r tarjimasida o'zgarishlar, "qurbonlar" bo'lishi tabiiy va zaruriy hol" [1, 48], - deya ta'kidlaganlari bejiz emas. Bazan, bunday holat tarjimonlar erkinlik yo'lini tanlaganda ko'proq aniqlangan. Lekin yuqoridagi olimlar tarjimada erkinlik haqida quyidagi "shoir-tarjimonlarning she'riy asarni nazm bilan tarjima qila turib, uni boshqacha usulda boshqa ma'no bilan talqin etishlari tarjimadagi ataylab qilingan "o'zboshimchalik" bo'lib, bunday o'zgaruvchi erkinliklar haqiqatan ham aniqlik tushunchasiga xilofdir" [1, 44] fikr yuritganlar. Demak, V. Mey tanlagan erkinlik bizning "ataylab qilingan o'zboshimchalik" hisoblanadi. Bu "o'zboshimchalik" esa asliyatdagi ma'noni tarjimada noaniqlik bilan ifodalashga etaklagan. Ikkinchi misrada noaniqlik, mahvumlik yanada ham kuchaygan. Asliyatdagi "payg'ambar qorong'u kunlarda xalq uzra mash'al bo'lib, yorug'lik tarqatib, xalqni ro'shnolikka chiqaradi" deya ifodalangan jumlar shunchaki "he was lit up by the sun's gleaming ray. - u quyoshning charaqlagan nuri tomonidan yoritildi." jumlasini bilan ifoda etilgan. Demak, Yusuf Xos Hojib asarda payg'ambar xalqni ro'shnolikka chiqaradi degan bo'lsa, mutarjim tomonidan berilgan jumalardan "payg'ambarga quyosh nuri tarqatiladi" deya mavhum, chalkash va noaniq tarjima qilingan.

R. Denkof tomonidan amalga oshirilgan tarjima asliyatga anchayin yaqinroq bo'lib, mutarjimni o'zi rejalashtirgan muvafaqqiyatga etaklagan.

R. Denkof tarjimasi:

He was a lamp to all creatures in the night of darkness, His light has spread so far that it even shines on you.

Mazmuni:

U qorong'u tunlarda barcha mavjudot uchun chiroq (fonus) edi, Uning nuri yoyilgan, hattoki seni yoritishgacha.

R. Denkof tarjimasida "a lamp" ot so'z turkumi bo'lib kelgan leksemdan u tarjimada metaforani ifodalanganini bilish mumkin. Lekin bu so'z xususida bir savol mavjud. Asliyatdagi istioraviy birlik tarjima tili bilan muloqat qiladigan xalq uchun ko'chma ma'no ifodalaydimi? Bu savolning javobini Michigan universiteti veb sahifasidan olingan ma'lumot bilan berish o'rinli. U erda shunday yozilgan: "Lamp - hayot, ilohiylik nuri, donishmandlik, aql-zakovat, ezgu ishlar chiroqning ramziy tabiatining ko'rinishlaridir. Chiroqlar, shuningdek, Oloviddin va jin hikoyasida bo'lgani kabi, boshqa hayotga kirish eshigi ham bo'lishi mumkin. Bazan, poklik va bokiralik ham go'zallik va sevgi bilan bog'liq. Bu fidoyilikning eng yuqori ramzidir, chunki u o'zini dunyoga yorug'lik berish uchun sarflaydi" [20]. Demak, inglizabon xalqlar tomonidan ishlatiladigan "a lamp" so'zi Sharq xalqlari uchun "mash'al" so'zining mazmuniy tarjimasi o'laroq, tarjimon tomonidan so'z tanlashda xatolikka yo'l qo'yilmagan. Mutarjim tomonidan asliyatdagi istiora tarjimada to'g'ri keltirilgan bo'lsada, ikkinchi misrada bazi bir juziy kamchilikka yo'l qo'ygan. Xususan, asliy matn "Йаруқлуқы йадты, йарутты сәни" dagi istioraning mantiqiy davomini "His light has spread so far that it even shines on you" deb tarjima qilgan. Tog'ri, misraning bir qismida "his light has spread" (uning nuri yoyilgan) tarzida bergan, ammo asliyatdagi "йарутты сәни" (seni ro'shnolikka chiqardi) birikmasi tarjima qilinmagandek. "So far that it even shines you" (hattoki seni yoritishgacha) jumlasini, bizningcha, asliyatdagi jumalaning ekuvalenti bo'la olmaydi. Chunki, "yoritadi" (shines you) so'ziga ingliz tilining izohli lu'gatlarida bunday ma'nolari berilmagan. Bu erda, ingliz tiliga qilingan

tarjima mikrokontekstdan olib qaralganda ham, oddiy ma'no ilgari surilmoqda. Shunday bo'lsa-da, R. Denkof tomonidan qilingan nasriy tarjima to'laqonli bo'lmasa-da asliy matnning tarjimasi bo'la oladi.

XULOSA

Govohi bo'lganimizdan XI asrga taa'luqli bo'lgan Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari etuk bir asar bo'lib, undagi barcha ma'naviy, falsafiy, siyosiy va ijtimoiy qarashlar go'zal tartibda baytlarga tizib chiqilgan. Mutarjimlar tomonidan amalga oshirilgan tarjimalarda, ba'zan istiora ifoda qilingan, ba'zan esa ularni realiya vositasida amalga oshirilgan variantlardagi holatlarni guvohi bo'ldik.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Salomov G', Komilov N. Do'stlik ko'priklari. – Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. 1-5 jild.
3. Древнетюркский словарь. Л.: «Наука» 1969.
4. Yusuf Balasaguni. Beneficent Knowledge // Translated into English by Walter May. – Moscow-Bishkek: 1998
5. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. Transkripsiya va hozirgi o'zbek tiliga tavsif Q.Karimovniki. – T.: Fan, 1971.
6. Sodiqov Z. Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" asarini olmoncha ilmiy adabiy talqinlari. Filol.fan.nomz...diss. – Toshkent, 1994.
7. Uigurische Sprachmonumente und das Kutadgu Bilig. Uigurische Text mit Transcription und Uebersetzung von Herman Wamberi. Innsbruck, 1870.
8. Das Kutadgu Bilig des Jusuf Chass Hadschib aus Balasagun. Text und Uebersetzung nach den Handschriften von Wien und Kairo. Herausgegeben von Dr. Radloff W - S t Petersburg, 1910.
9. Sidiqov Q. Qutadg'u bilig" to'rtliklarining inglizcha badiiy tarjima xususiyatlari. Filol.fan.nomz...diss. – Toshkent, 2010.
10. Yusuf Khass Hajib, Wisdom of Royal Glory (Kutadgu Bilig) A Turko-Islamic for Princes, Translated, with an Introduction and Notes by Robert Denkof, The University of Chicago Press, 1983.
11. Arat R.R. Kutadgu Bilig I: Metin – Ankara: 1979. – 656 s., Arat R.R. Kutadgu Bilig II Çeviri. Turk Tarih Kurumu Basimevi. – Ankara: 1994. 6-baski.
12. Самойлович А. Дополнение к предложением Радловым и Томсеном к переводам одного стиха – "Кутадгу билиг" // Доклады Академии наук, серия В. – Москва, 1928. – № 2. – С. 23-25., Самойлович А. Из поправок к изданию и переводу – "Кутадгу билиг" // Доклады Российской Академии наук, серия В. - Москва, 1924.
13. Бертельс Е.Э. Изречение Ибрахим ибн Адхама в – "Кутадгу билиг". Суфизм и суфийская литература. – М.: Наука, 1965.
14. Стеблева И. В. Арабо-персидская теория рифмы и тюркоязычная поэзия. // Тюркологический сборник. К 60-летию Н.А.Кононова. – М.: Наука, 1966.
15. Karimov Q. "Qutadg'u bilig" da kelishik kategoriyasi: Filol. fan. nom. dis. – T., 1962.
16. Тухлиев Б. Юсуф Хос Хожибнинг – "Кутадгу билиг"и ва айрим жанрлар такомили (Маснавий, тўртлик, қасида). – Т.: Асп-Матбуот, 2004., Тухлиев Б.Юсуф Хос Хожибнинг – "Кутадгу билиг" асари. – Т. Ўзбекистон, 1991., Тухлиев Б. Юсуф Хос Хожибнинг – "Кутадгу билиг" асари ва туркий фольклор: Филол. фан. док. ... дисс. – Т.: 1991.
17. Sidiqov Q. "Qutadg'u bilig" to'rtliklarining inglizcha badiiy tarjima xususiyatlari. – Toshkent. Bayoz, 2014.
18. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/lord>
19. <https://www.ayk.gov.tr/wp-content/uploads/2015/01/KASIEVA-Aida-STYLISTIC-DEVICES-IN-THE-KUTADGU-BILIG-AND-THE-ADEQUACY-OF-THEIR-TRANSLATION-INTO-ENGLISH-ON-THE-MATERIAL-OF-ENGLISH-TRANSLATION-MADE-BY-W.-MAY.pdf>
20. <http://websites.umich.edu/~umfandsf/symbolismproject/symbolism.html/L/lamp.html#:~:text=Life%2C%20the%20LIGHT%20of%20divinity,of%20Aladdin%20and%20the%20genie.>